



THE LEGAL FRAMEWORK FOR APPEALING ARBITRAL AWARDS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: CHALLENGES AND PROSPECTS FOR IMPROVEMENT

Khayitov Ilkhom Sheramatovich

Trainee The supreme school of judges

with The supreme judicial council of the Republic of Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15543329>

ARTICLE INFO

Received: 22nd May 2025

Accepted: 28th May 2025

Online: 29th May 2025

KEYWORDS

Arbitral award;
UNICTRAL appeal;
grounds for setting aside;
international commercial arbitration; economic court;
comparative analysis; judicial review.

ABSTRACT

This article analyzes issues related to appealing arbitration awards to the court (cases on setting aside arbitral awards). The article highlights the novelties in the procedure for setting aside arbitral awards in Uzbek legislation and their conformity with the experience of Russia and several foreign countries. The principle of the finality of arbitral awards and the grounds for its exceptional judicial review are scientifically substantiated, and similarities and differences in comparative jurisprudence are presented. Furthermore, based on practical cases, the grounds and procedure for setting aside arbitral awards by courts are elucidated. At the end of the article, conclusions are drawn on the topic, and proposals and recommendations for improving legislation are developed.

ИНСТИТУТ ОБЖАЛОВАНИЯ АРБИТРАЖНОГО РЕШЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Хайитов Илхом Шераматович

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15543329>

ARTICLE INFO

Received: 22nd May 2025

Accepted: 28th May 2025

Online: 29th May 2025

KEYWORDS

Арбитражное решение;
ЮНСИТРАЛ;
обжалование;
основания для отмены;
международный
коммерческий
арбитраж;
экономический суд;
сравнительный анализ;
юридический контроль.

ABSTRACT

В данной статье проанализированы вопросы судебного обжалования арбитражных решений (дела об отмене арбитражного решения). Представлены нововведения в законодательстве Узбекистана, касающиеся порядка отмены арбитражных решений, а также их соответствие практике Российской Федерации и ряда зарубежных стран. Научно обоснованы принципы окончательности арбитражных решений и основания для их правового контроля как исключения, приведены сходства и различия в сравнительном правоведении. Кроме того, на примерах из практики раскрыты основания и порядок отмены арбитражных решений судами. В заключение статьи представлены выводы по теме, а также разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства.



**O'ZBEKISTONDA ARBITRAJ HAL QILUV QARORI USTIDAN SHIKOYAT
QILISH INSTITUTI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Xayitov Ilxom Sheramatovich

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi

Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15543329>

ARTICLE INFO

Received: 22nd May 2025

Accepted: 28th May 2025

Online: 29th May 2025

KEYWORDS

Arbitraj hal qiluv qarori;
UNICTRAL, shikoyat
qilish; bekor qilish
asoslari; xalqaro tijorat
arbitraji; iqtisodiy sud;
taqqoslama tahlil;
huquqiy nazorat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada arbitraj hal qiluv qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish (hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ishlar) masalalari tahlil qilingan. O'zbekiston qonunchiligida arbitraj qarorlarini bekor qilish tartibiga doir yangiliklar va ularning Rossiya hamda qator xorijiy davlatlar tajribasiga muvofiqligi ko'rsatib berilgan. Arbitraj qarorlarining yakuniyligi tamoyili va uning istisno tariqasidagi huquqiy nazorati uchun asoslar ilmiy jihatdan asoslanib, qiyosiy huquqshunoslikdagi o'xshash va farqli jihatlar keltirilgan. Shuningdek, amaliyotda uchraydigan holatlar misolida sudlar tomonidan arbitraj qarorlarini bekor qilish asoslari va tartibi ochib berilgan. Maqola yakunida mavzu bo'yicha xulosalar chiqarilib, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Hozirgi zamonda iqtisodiyotning globallasuvi chuqurlashayotgan, davlatlararo aloqalar rivojlanayotgan hamda qonunchilik bir xillashtirilayotgan sharoitda xalqaro tijorat arbitraji nizolarni hal etishning muhim muqobil mexanizmiga aylanib bormoqda¹. Arbitraj tizimi tomonlar o'rtasidagi kelishuvga asoslangan xususiy jarayon bo'lib, unda qabul qilingan hal qiluv qarori huquqiy kuchga ega va ijro uchun majburiy hisoblanadi. Biroq arbitraj hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat qilish va uning qonuniyligiga e'tiroz bildirish jarayoni hozirgi kunga kelib muhokamali masala bo'lib qolmoqda.

Arbitraj hal qiluv qarorlari, odatda, tomonlar uchun yakuniy va majburiy hisoblanadi. Biroq bu hal qiluv qarorlarning qonuniyligi va adolatliligiga nisbatan ba'zi hollarda shubhalar yoki noroziliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, hal qiluv qarorida protsessual qonunbuzarliklar, tomonlar huquqlarining cheklanishi yoki arbitraj kelishuvining shartlariga zid holatlar kuzatilishi mumkin. Bunday holatlarda arbitraj hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish yoki uni bekor qilish masalasi o'rtaga chiqadi. Shu bois, arbitraj hal qiluv qarorlarini qayta ko'rib chiqish mexanizmi har bir davlatning huquqiy tizimida alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida arbitraj institutlari faoliyati yangi qonunchilik asosida mustahkamlandi. Xususan, 2021 yilda qabul qilingan "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonuni BMTning xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasi tomonidan qabul qilingan va BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ma'qullangan UNICTRALning Xalqaro savdo arbitraji

¹ Ф.Отахонов "Арбитраж муҳокамаси билан боғлиқ ишларнинг қонуний асослари такомиллаштирилди" мақола (18.05.2022 йилда эълон қилинган) – <https://uza.uz/uz/posts/arbitrazh-muhokamasi-bilan-bogliq-ishlarning-qonuniy-asoslari-takomillashtirildi> 373255



to'g'risidagi namunaviy qonuni asosida ishlab chiqilib, mamlakatda arbitraj faoliyati uchun huquqiy asos yaratib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga qaratilgan. Ammo amaliyotda arbitraj hal qiluv qarorilari ustidan shikoyat qilish bo'yicha qonuniy tartib-taomillar, ularning ijrosini ta'minlash va xalqaro standartlarga mos ravishda ish olib borish kabi masalalarda ayrim muammolar mavjud. Mazkur muammolarni tahlil qilish, ularni hal qilish yo'llarini belgilash va milliy qonunchilikni xalqaro talablarga muvofiqlashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Arbitraj hal qiluv qarorilari ustidan shikoyat qilish jarayoni nafaqat huquqiy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Bir tomondan, bu jarayon tomonlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Ikkinchi tomondan, arbitraj institutlarining ishonchligini ta'minlash va xalqaro arenada mamlakatning huquqiy tizimini ijobiy ko'rsatishda muhim ro'l o'ynaydi. Shuningdek, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va mamlakatdagi biznes muhitini yaxshilashda ham arbitraj hal qiluv qarorilarining qonuniyligi va shaffofligi katta ahamiyatga ega.

Arbitrajning hal qiluv qarori ustidan "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonunning 50-moddasida nazarda tutilgan hollarda shikoyat qilinishi mumkin. Turli davlatlarning milliy qonunlari arbitraj qarorlari ustidan sud nazoratining doirasini turlicha belgilaydi. Ayrim davlatlarda sudlar ma'lum darajada arbitraj qarorining mohiyati bo'yicha to'g'riligini tekshirish huquqiga ega, ya'ni ishning faktik holatlarini aniqlash, dalillarni o'rganish va baholash, moddiy hamda protsessual huquq normalarini qo'llashda arbitraj sudi to'g'ri ish tutganmi-yo'qmi – shu jihatdan tekshirishlari mumkin.

Mamlakatimiz qonunida arbitraj sudi hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish tartibi 50-moddada tartibga solingan bo'lib, unga muvofiq, arbitraj qarorini bekor qilish to'g'risida ariza berayotgan taraf quyidagilarning dalilini taqdim etsa arbitraj qarori bekor qilinadi, ya'ni:

- ushbu Qonunning 12-moddasida ko'rsatilgan arbitraj kelishuvining taraflaridan biri qaysidir darajada muomalaga layoqatsiz ekanligi dalilini;

- yoki ushbu kelishuvning taraflar uni qaysi qonunchilikka bo'ysundirgan bo'lsa, o'sha qonunchilik bo'yicha, bunday qonunchilik mavjud bo'lmaganda esa O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha haqiqiy emasligi dalilini;

- yoki taraf arbitr tayinlanganligi haqida yoki arbitraj muhokamasi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligi dalilini yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z vajlarini taqdim eta olmaganligi dalilini;

- yoki arbitrajning hal qiluv qarori arbitrajda hal qilinishi nazarda tutilmagan yoki arbitrajga murojaat qilish shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha qabul qilinganligi dalilini yoxud unda arbitraj kelishuvini qo'llash doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo'yicha qaror mavjudligi dalilini. Bunda agar arbitrajda ko'rilishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha qarorni arbitrajga tegishli bo'lmagan masalalardan ajratib olish mumkin bo'lsa, u holda arbitraj hal qiluv qarorining arbitrajga tegishli bo'lmagan masalalar bo'yicha qarori mavjud bo'lgan qismigina bekor qilinishi mumkin;

- yoki arbitraj sudining tarkibi yoki arbitraj tartib-taomili taraflarning kelishuviga muvofiq emasligi dalilini, agar faqat bunday kelishuv ushbu Qonunning taraflar chekinishi mumkin bo'lmagan har qanday qoidasiga zid bo'lmasa yoki bunday kelishuv mavjud bo'lmasa, ushbu Qonunga muvofiq emasligi dalilini.



Shuningdek, agar sud nizo predmeti O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko'ra arbitraj muhokamasiga tegishli emasligini yoki arbitrajning hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasining ommaviy tartibiga zid ekanligini aniqlagan taqdirda ham arbitraj qarori bekor qilinadi.

Rossiya Federatsiyasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi (1993 y.) Qonunining 34-moddasi birinchi qismiga ko'ra arbitraj kelishuvida, taraflar o'zlarining to'g'ridan-to'g'ri kelishuvi bilan arbitraj qarorining yakuniy ekanligini ko'rsatishlari mumkin. Yakuniy arbitraj qarori bekor qilinishi mumkin emas². Rossiya davlat sudlariga xalqaro arbitraj sudlarining taraflari arbitraj qarorini bekor qilish to'g'risida murojaat qilganda, taraflar o'rtasidagi kelishuvda arbitraj qarorining yakuniy ekanligi aniqlangan taqdirda ish yuritish tugatiladi yoki arizani qabul qilish rad qilinadi.

Bunday qoida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilmagan, biroq ushbu turdagi institutni bizning qonunchiligimizda ham joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu bilan arbitrajning davlat sudlaridan mustaqilligi, nizolarning hal qilishning muqobil usuli sifatida yana ham mustahkamlanadi deb hisoblayman. Bu bilan arbitraj hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish institutini butunlay yo'q qilish kerak demoqchi emasman, balki bu bilan taraflarning nizoni arbitraj sudlari orqali hal qilish yo'lini tanlaganda, ushbu sudlarning qarorlari yakuniy ekanligini belgilash orqali taraflarning ma'suliyatini, arbitrlarning tegishli tartibda va qanunchilikka asoslangan mukammal qaror qabul qilishiga bo'lgan ishonchini oshirishga erishish mumkin.

Bunday institutni joriy qilish orqali nizodagi taraflarning huquqlari cheklanib qolmaydi. Sababi, Qonunning 52-moddasida nazarda tutilganidek ushbu qonunning 50-moddasida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lganda arbitrajning hal qiluv qarori qaysi mamlakatda qabul qilinganidan qat'i nazar, uni tan olish yoki ijroga qaratish rad etilishi belgilangan. Bundan ko'rinadiki taraflar o'rtasida arbitraj qarorini yakuniyligi kelishilib, qaror ustidan shikoyat qilish imkoniyatini yo'qotgan taqdirda ham Qonunda belgilanganidek taraflarning huquqlari buzilganligi yoki ushbu qaror O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko'ra arbitraj muhokamasiga tegishli emasligini, shu jumladan, arbitrajning hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish O'zbekiston Respublikasining ommaviy tartibiga zid ekanligi aniqlansa arbitrajning hal qiluv qarori ijro qilinmaydi. Bu bilan nizodagi tarafning huquqlari buzilgan holda qabul qilingan hal qiluv qarorining ijro qilinmasligi davlat sudlari tomonidan ijro varaqa berilmasligi orqali himoya qilinishi kafolatlangan.

Qolaversa, arbitraj sudi hal qiluv qarorining bekor qilinganligi yoki tan olish va ijroga qaratish rad qilinganligi arbitraj muhokamasi taraflariga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

Biroq, O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonunida ham, Iqtisodiy protsessual kodeksida ham yuqorida keltirilgan norma aniq belgilab qo'yilmaganligi qonunchilda bo'shliq yaratmoqda. Xususan, Iqtisodiy protsessual kodeksining 227-moddasi hamda 232-moddalarida hakamlik sudi hal qiluv qarorining bekor qilinganligi yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish rad

² <https://base.garant.ru/10101354/caed1f338455c425853a4f32b00aa739/>



etilganligi ushbu kodeksda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishiga to'sqinlik qilmasligi belgilab qo'yilgan. Kodeksning 3-moddasida har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun iqtisodiy sudga (sudga) ushbu Kodeksda belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli. Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas. Garchan, Kodeksning 110-moddasi 3¹-bandida ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan arbitrajning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa sud ish yuritishni tugatishi belgilangan, bundan iqtisodiy sud arbitrajning hal qiluv qarorini tan olishni va ijroga qaratishni rad etgan hollar mustasnoligi ko'rsatib o'tilgan bo'lsada, kodeksning arbitraj muhokamasi bilan bog'liq ishlarni yuritish bobi(29¹) va Chet davlatlar sudlarining va arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ishlarni yuritish bobi(33)da "Arbitraj sudi hal qiluv qarorining bekor qilinganligi yoki tan olish va ijroga qaratish rad qilinganda arbitraj muhokamasi taraflariga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishiga to'sqinlik qilmasligi" to'g'risida norma mavjud emas. Kodeksda ushbu normaning yo'qligi iqtisodiy sudlarda arbitraj muhokamasi bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish bilan bog'liq ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 232⁸, 248-moddalariga hamda "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi" Qonunining 50-moddasiga "Arbitraj sudi hal qiluv qarorining bekor qilinganligi yoki tan olish va ijroga qaratish rad qilinganda arbitraj muhokamasi taraflariga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan iqtisodiy sudga qayta murojaat etishiga to'sqinlik qilmasligi" to'g'risida norma kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 232⁵-moddasi hamda "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi" Qonunining 50-moddasiga asosan arbitraj qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza ushbu arizani bergan taraf arbitrajning hal qiluv qarorini olgan sanadan e'tiboran uch oy o'tgandan so'ng berilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Bundan tushunish mumkinki arbitrajning hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza hal qiluv qarori taraflarga topshirilgan sanadan boshlab uch oy ichida berilishi mumkin. Bu muddatning qat'iy belgilanganligi taraflarning arbitraj qarori ustidan shikoyat qilish huquqini qisman cheklab qo'yganga o'xshaydi. Chunki, taraflar turli asos va sabablarga ko'ra ushbu muddatda shikoyat taqdim qilish huquqidan foydalana olmagan bo'lishi mumkin. Sud ishlarini yuritish bo'yicha qonunchiligimizda belgilangan protsessual muddatlar o'tkazib yuborilgan taqdirda nizolashyotgan taraflarga protsessual huquqlarini tiklash imkoniyati berilgan. Masalan, Iqtisodiy protsessual kodeksining 262-moddasiga asosan apellyatsiya shikoyatini (protestini) berishning o'tkazib yuborilgan muddati, shikoyat (protest) bergan shaxsning iltimosnomasi bo'yicha apellyatsiya instantsiyasi sudi tomonidan, agar iltimosnoma hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran ikki oydan kechiktirmasdan berilgan va apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o'tkazib yuborilishining sabablari sud tomonidan uzrli deb topilgan bo'lsa, tiklanishi mumkin yoki 285-moddasida kassatsiya shikoyati (protesti) berishning o'tkazib yuborilgan muddati shikoyat (protest) bergan shaxsning iltimosnomasi bo'yicha kassatsiya instantsiyasi sudi tomonidan, agar iltimosnoma kassatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o'tgan kundan e'tiboran uch oy ichida berilgan va kassatsiya



shikoyatini (protestini) berish muddati o'tkazib yuborilishining sabablari sud tomonidan uzrli deb topilgan bo'lsa, tiklanishi mumkinligi belgilangan. Qonunchilikda belgilanmagan holatlarda esa Plenum qarorlarida tushuntirish berib ketilgan. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 15.06.2012 yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan hakamlar muhokamasi bilan bog'liq ishlarni ko'rishda qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 238-son qarori 12-bandida IPK 223-moddasining birinchi qismi hamda Qonun 46-moddasining birinchi qismi mazmuniga ko'ra hakamlar muhokamasi tarafi hakamlar sudining iqtisodiy sudiga taalluqli nizoga doir hal qiluv qarori ustidan ushbu qarorni olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida iqtisodiy sudiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin, ariza belgilangan muddat o'tganidan keyin taqdim etilgan bo'lsa, o'tkazib yuborilgan muddat sud tomonidan uni tiklash to'g'risidagi iltimosnoma asosida tiklanishi mumkinligi to'g'risida tushuntirish berilgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki arbitraj muhokamasi bilan bog'liq ishlar bo'yicha qonunchiligimizda bo'shliqlar mavjud bo'lib, ushbu turdagi ishlarni to'g'ri, bir hilda va qonunchilik talablari bo'yicha ko'rib chiqish, qolaversa qonunchilikdagi ba'zi kamchiliklar va ziddiyatlarni to'g'ri hal qilish uchun iqtisodiy sudlar tomonidan arbitraj muhokamasi bilan bog'liq ishlarni ko'rishda qonun hujjatlarini qo'llashning masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi qarori qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qonunchilikdagi yana bir muammolardan biri shuki, arbitraj hal qiluv qarori qabul qilinib, ushbu qarorni bekor qilish tug'risidagi ariza bilan bir vaqtda ikkinchi taraf arbitraj qarorini tan olish va ijroga qaratish tug'risida ariza taqdim qilgan holatlar amaliyotda uchrashi ehtimoldan holi emas. Ushbu holatda sudlar masalani qanday hal qilishi lozimligi qonunchilikda ochiq qolmoqda. Bu masalani ham Plenum qarori qabul qilish orqali tushuntirish berib hal qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, yuridik fanlar doktori, professor F.X.Otaxonovning fikrlariga qo'shilgan holda shuni aytish kerakki, arbitraj muhokamasi bilan bog'liq ishlar iqtisodiy sudga taalluqliligi, ya'ni ishlar nizo yuzaga kelgan huquqiy munosabatlar ishtirokchisi yuridik yoki jismoniy shaxslar bo'lishidan qat'i nazar, iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqilishi belgilanganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksidan (1, 26, 364 372-moddalaridan) chet davlat hakamlar sudlarining (arbitraj-larining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ishlarga oid normalarni chiqarib tashlash lozim³.

Yuqoridagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish orqali, O'zbekistonda arbitraj qarorlari ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq huquqiy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish, investitsiya va biznes muhiti uchun kafolatlarni mustahkamlash hamda xalqaro standartlarga mos sud-huquq amaliyotini ta'minlash mumkin bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, 01.04.2018 y.
3. O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonun, 16.02.2021 yildagi O'RQ-674-son

³ <https://mediator.uz/arbitrazh/840-fotahonov-arbitrazh-muokamasi-bilan-boli-ishlarni-sudlarda-krishning-dolzarb-masalalari.html>



4. UNCITRAL Xalqaro arbitraj to'g'risidagi namunaviy qonuni (1985)
5. <https://mediator.uz>
6. Ф.Отахонов "Арбитраж муҳокамаси билан боғлиқ ишларнинг қонуний асослари такомиллаштирилди" мақола (18.05.2022 йилда эълон қилинган) – <https://uza.uz/uz/posts/arbitrazh-muhokamasi-bilan-bogliq-ishlarning-qonuniy-asoslari-takomillashtirildi-373255>
7. Ф.Отахонов "Арбитраж муҳокамаси билан боғлиқ ишларнинг қонуний асослари такомиллаштирилди" мақола (18.05.2022 йилда эълон қилинган) – <https://uza.uz/uz/posts/arbitrazh-muhokamasi-bilan-bogliq-ishlarning-qonuniy-asoslari-takomillashtirildi-373255>
8. Закон РФ "О международном коммерческом арбитраже" статья 34, <https://docs.cntd.ru/document/9004449>
9. <https://base.garant.ru/10101354/caed1f338455c425853a4f32b00aa739/>
10. <https://mediator.uz/arbitrazh/840-fotahonov-arbitrazh-muokamasi-bilan-boli-ishlarni-sudlarda-krishning-dolzarb-masalalari.html>
- 11.